

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-3



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)  
**Каланова Сабохат Мурадovна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. профессор (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин</b> РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
<b>2. Karimov Bobir</b> JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
<b>3. Mamatov Normurat</b> IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
<b>4. Rasulov Abdimumin</b> SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
<b>5. Xusanova Hayriniso</b> IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
<b>6. Abduxalilov Abdullo</b> NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
<b>7. Якубов Ильдар</b> КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
<b>8. Abdullayev Akmal</b> O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
<b>9. Хасанова Мавлюда</b> СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
<b>10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
<b>11. Алимухамедова Нодира</b> ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
<b>12. Tolipov Abdug‘affor</b> VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
<b>13. Berdimuratov Marat</b> YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104

<b>14. Хамиджонов Умиджон</b>	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
<b>15. Ixtiyarov Farhod</b>	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
<b>16. Хасанова Мавлюда</b>	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
<b>17. Radjabova Aziza</b>	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
<b>18. Kalanova Sabohat</b>	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
<b>19. Ixomjon Xudayarov</b>	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
<b>20. Tagaymuratova Gulchehra</b>	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
<b>21. Jabborov Jaxongir</b>	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
<b>22. Ixtiyarov Farhod</b>	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
<b>23. Xasanov Sharofidin</b>	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIY TAJRIBASI.....	179
<b>24. Nurulloev Shahriyor</b>	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
<b>25. Аликариев Нуриддин</b>	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
<b>26. Alikariyeva A'loxon</b>	
OLIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ


## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Ixtiyarov Farxod,**

OXU dotsenti, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

### INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099554>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada inson kapitalini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan ijtimoiy transformatsiyalashuv tendensiyalari keys-stadi usuli asosida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida inson kapitali iqtisodiy o'sish, innovatsion taraqqiyot va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Jahon amaliyoti va mahalliy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish orqali ta'lim tizimi, mehnat bozori, raqamlashtirish jarayonlari hamda ijtimoiy institutlar faoliyatining inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritib beriladi. Keys-stadi usuli orqali aholining intellektual salohiyatini oshirish, innovatsion jarayonlarda ishtirok darajasini kengaytirish hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan samarali amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, institutsional islohotlar, ta'lim sifatini oshirish va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishning inson kapitaliga ta'siri baholanadi. Tadqiqot natijalari inson kapitalini takomillashtirishda kompleks yondashuvni qo'llash zarurligini asoslab beradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan inson kapitali rivoji o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon qiladi.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, keys-stadi usuli, ijtimoiy transformatsiya, ta'lim tizimi, mehnat bozori, raqamlashtirish jarayonlari, innovatsion faoliyat, intellektual salohiyat, kadrlar salohiyati, ijtimoiy institutlar

**Ихтияров Фарход,**

доцент МУО, доктор философии (PhD) по социологии

e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

### ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА НА ОСНОВЕ КЕЙС-СТАДИ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе метода кейс-стади проводится углублённый анализ тенденций социальной трансформации, возникающих в процессе развития и совершенствования человеческого капитала. В рамках исследования человеческий капитал рассматривается как ключевой фактор, обеспечивающий экономический рост, инновационное развитие и устойчивое развитие общества. На основе сравнительного анализа мировой практики и местного опыта раскрываются роль и значение системы образования, рынка труда, процессов цифровизации, а также деятельности социальных институтов в формировании человеческого капитала. С применением метода кейс-стади анализируются эффективные практические подходы, направленные на повышение интеллектуального потенциала

населения, расширение уровня участия в инновационных процессах и развитие кадрового потенциала. Кроме того, оценивается влияние институциональных реформ, повышения качества образования и развития цифровых навыков на развитие человеческого капитала. Результаты исследования обосновывают необходимость применения комплексного подхода к совершенствованию человеческого капитала и демонстрируют его тесную взаимосвязь с социально-экономическими реформами.

**Ключевые слова:** человеческий капитал, метод кейс-стади, социальная трансформация, система образования, рынок труда, процессы цифровизации, инновационная деятельность, интеллектуальный потенциал, кадровый потенциал, социальные институты.

**Ikhtiyarov Farhod,**

associate professor of OSU, doctor of Philosophy (PhD) in Sociology  
e-mail: farhod.ixtiyarov.77@gmail.com

## TRENDS OF SOCIAL TRANSFORMATION IN IMPROVING HUMAN CAPITAL BASED ON THE CASE-STUDY APPROACH

### ABSTRACT

This article provides an in-depth analysis of social transformation trends emerging in the process of developing and improving human capital based on the case study method. Within the framework of the study, human capital is considered a key factor ensuring economic growth, innovative development, and the sustainable development of society. Through a comparative analysis of global practices and local experiences, the role and importance of the education system, the labor market, digitalization processes, and the activities of social institutions in shaping human capital are examined. Using the case study approach, effective practical methods aimed at enhancing the intellectual potential of the population, expanding participation in innovation processes, and developing human resource capacity are analyzed. In addition, the impact of institutional reforms, improvements in education quality, and the development of digital skills on human capital development is assessed. The research findings substantiate the necessity of applying a comprehensive approach to human capital improvement and demonstrate its close interconnection with socio-economic reforms.

**Keywords:** human capital, case study method, social transformation, education system, labor market, digitalization processes, innovative activity, intellectual potential, human resources capacity, social institutions.

### KIRISH

Inson kapitali barqaror iqtisodiy rivojlanish, innovatsion jarayonlar va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy global va mahalliy kontekstda inson kapitalini takomillashtirish jarayoni nafaqat ta'lim va malaka, balki kadrlar salohiyati, raqamlashtirish va ijtimoiy institutlar faoliyati bilan ham uzviy bog'liqdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson kapitali rivoji ijtimoiy transformatsiya bilan chuqur bog'liq bo'lib, mamlakatning raqobatbardoshligi, innovatsion imkoniyatlari va iqtisodiy o'sishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan inson kapitalini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy transformatsiyalashuv tendensiyalarini o'rganish ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Xususan, ijtimoiy transformatsiyalashuv jarayonlari Yangi O'zbekistonda davlat va jamiyat ko'lamlarida yuz berayotgan o'zgarishlar mohiyatini namoyon etadi. So'nggi yillar mobaynida davlat va jamiyat darajasidagi transformatsiyalashuv jarayoni tub isloh etilgani, xususan bosh islohotchilik funksiyasining davlatdan jamiyatga o'tgani, bosqichma-bosqich rivojlanishning jadal yuksalishga, inson, jamiyat, davlat uchligida davlat va jamiyatga beriluvchi prioritetning insonni ustuvorligiga o'zgarganida yaqqol namoyon bo'ladi. Yangi O'zbekistondagi eng katta transformatsiyalashuv, tabiiyki, inson omilini hamma narsadan ustun qo'yishda namoyon bo'ladi.

Inson manfaatlarining ijtimoiy rivojlanish va yalpi dinamik jarayonlar markaziga qo'yilishi

esa uning dastavval tafakkur tarzini isloh etish, kasbi-korida «perfekshin» holatni yaratish, jamiyatda esa yalpi totuvlik muhitini barqarorlashtirishni kun tartibiga chiqazadi.

### **METODOLOGIYA**

Rivojlangan davlatlarda keys-stadi innovatsiya, idrok etish, tafakkur imkoniyatlarini kengaytirish orqali transformatsiyalashning eng murakkab imkoniyati sifatida qaralmoqda. Keyingi paytlarda keys-stadi usuli mamlakatimizda ta'lim tizimi orqali asta-sekinlik bilan ommalashib bormoqda. Mazkur usuldan amaliyotda keng foydalanish, ayniqsa boshqaruvda muammolarni hal qilish va qarorlarni qabul qilishda keng qo'llash o'zining samarasini beradi. Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirishda mazkur usul konstruktiv ahamiyatga ega bo'lib, har qanday vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga imkon beradi. Chunki, aynan keys metodi mazmunida muammoli vaziyatni hal qilishda jarayonning umumiy va xususiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Ma'lumki, «Keys-stadi» usuli ingliz tilida «case» – jomadon, metod, «stadi» – muammoli vaziyat, holat, jumladan, vaziyat, holat tahlili yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ma'nosini anglatadi. Ayni paytda keys-stadi aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali yaxshi elementlarining yaxshirog'ini tanlash, turli variantlar ichidan eng maqbul variantlarni topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya sifatida qo'llaniladi. Real vaziyatlarni bayon etishda qo'llaniladigan mazkur o'qitish texnikasi keys-texnologiyasini loyihalashtirishni nazarda tutadi.

### **ASOSIY QISM**

Keyslarning ilk to'plami 1925-yilda Garvard universiteti biznes muammolariga bag'ishlangan «Garvard universiteti hisobotlari» da alohida bob sifatida chop etilgan. Hozirda bu texnologiya xorijiy mamlakatlarda nafaqat biznes, balki tibbiyot, ta'lim, turizim, madaniyat, diplomatiya, sanoatning turli biznes sohalarida ham keng qo'llanilmoqda.

O'zbekistonda mazkur texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'lidagi ilk harakatlar mustaqillikka erishilgan davrning dastlabki yillarida boshlandi.

Ma'lumki, G'arbda barcha sohalar, xususan boshqaruvda jarayonida qo'llaniladigan keyslarning tayyor variantlari ham mavjud. Ularni hatto savdo nuqtalarida sotib olish mumkin. Biroq, inson kapitalini rivojlantirishdagi eng maqbul va samarali yo'l har bir soha bo'yicha keyslarni mustaqil yaratilishiga erishishdir. Ma'lumotlarga qaraganda Garvard universitetida yiliga 700 ta keys ishlab chiqiladi. Ular 100 dollardan 10000 dollargacha baholanadigan loyihalarni o'z ichiga oladi. London biznes maktabi va boshqa biznes maktablari o'zlarida 340 nafarga yaqin ishtirokchilarni birlashtirgan holda keyslarni yaratish bilan shug'ullanadi. Bu amaliyot ko'lamlari muttasil kengayib bormoqda. Turli muammolar bo'yicha rata-partish, noto'g'ri, yuzaki yoki davriy qaror va yechimlar o'rniga asoslangan, aniq, maqsadga yo'naltirilgan, foydali yechimlarga ega bo'lish imkoni mazkur amaliyot obro'sini oshirmoqda.

Mazkur Keys-stadi usuli o'ziga xos texnologiya sifatida tadqiqot predmetini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, kuchaytirib amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini shakllantiradi. Turli muammoli vaziyatlarning sifatli yechimlarini asoslash va ularni hal qilish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy vazifalari esa quyidagi tizim yasovchi elementlarda namoyon bo'ladi:

- ishtirokchilarda holatni ko'rish va tahlil ko'nikmalarini shakllantirish;
- nazariya va amaliyot birligini ta'minlash;
- muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish;
- tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
- qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni tasniflash;
- noaniqliklar mavjud bo'lgan sharoitda taqdim etilgan tavsiyalar tarkibidan muqobil variantlarni baholash ko'nikmalarini shakllantirish.

Albatta, oldindan ijobiy natijaga erishish uchun keyslarni tekshirilishi va baholanishi muhim ahamiyatga ega. Yaratilgan keys ekspert tekshiruvi va baholashdan o'tishi kerak. Keys loyihasining korxonada xodimi tomonidan ko'rib baholash va unda bayon qilingan axborotning real vaziyatga nemuvofiq kelishi, shuningdek keltirilgan faktlarning qanday talqi etishi va shu kabilar tekshirish

vositalari sifatida qo'llanilishi mumkin.

Keys-stadi yordamida o'rganuvchilar quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish mumkin:

- tahliliy ko'nikmalarning shakllanishi, ya'ni – ma'lumotlarni bir-biridan ajrata olish, ularni turkumlash, ahamiyatiga ko'ra kerakli va ikkilamchi darajaga ajratish, tahlil qilish, yuqori idoralarga taqdim etish, buning uchun esa o'rganuvchi shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak;
- amaliy ko'nikmalar – muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim, metod va tamoyillarni qo'llay olish, muammoga nisbatan jamoatchilik fikrini aniqlash singari amaliy ishlar qila olish;
- ijodiy ko'nikmalar – bunda mantiqiylik asosida vaziyat, muammoni yechishgina emas, balki ayni vaqtda masalaga ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qila bilish;
- muloqot ko'nikmalari – unga ko'ra bahs-munozara olib borish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, tavsiya etilayotgan fikrga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobot tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtira bilish;
- ijtimoiy ko'nikmalar – turli qarorlarni muhokama qilish jarayonida boshqalarning hatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o'zgalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildira olish va o'zini jamoada tuta bilishi shular jumlasidandir;

Keys topshiriqlarining amaliy – didaktik xarakterga ega bo'lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

- maqsadni aniq ifoda etish, ya'ni maqsadni ikki yoki undan ortiq tushunilmasligi;
- savol yoki topshiriqlarning ma'lum darajadagi murakkabligi ta'minlangan bo'lishi;
- berilgan keyslarda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yoritish olishi;
- tezda o'zining amaliy ahamiyatini yuqotmasligi;
- milliy xususiyatlarni o'zida namoyon eta olishi;
- dolzarb ahamiyatga ega bo'lishi;
- tahliliy tafakkurni rivojlantirishi;
- bahs-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi;
- bir necha yechim (qaror)ni ilgari surish imkoniyatini ta'minlay olishi.

Ma'lumki, insonda hayotiy investitsiyalarning o'rni katta bo'lib, turmush tarzining farovonlashishi odamlarning bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash muhitida shakllanadi. Shu boisdan ham keys stadi inson kapitaliga kiritiluvchi investitsiyalarning shakliga qarab quyidagi transformatsiyalashuv turlarini asoslab berdik:

- ta'limning «perfekshen» darajasiga o'sib o'tishi;
- mehnat ko'nikmalarining «kasbi komillik» darajasiga yuksalishi;
- sog'liqni saqlash harakatining sog'lom turmush tarzi madaniyati darajasiga ko'tarilishi;
- iqtisodiyot sohasida o'sib borayotgan bilim va ko'nikmalar.
- faoliyatdagi kompromiss munosabatlarning konsensus darajasiga yuksaltirish;
- inson kapitali paradigmasining ierarxik tasniflanishi va ijtimoiy kapital mavqeining kuchayishi.

Inson kapitalining transformatsiyalashuvida uni jadal ijtimoiylashuvihamda mehnat bozorida sotish imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki, insonda chuqur transformatsiyalashgan kapitalning to'planishiquyidagi imkoniyatlar eshigini ochadi:

- uni uzoq muddat foydalaniladigan ne'mat sifatida qo'llash;
- muayyan texnologiyalarni uzluksiz ishlatish bilan va doimiy xarajatlar bilan bog'liq;
- uskuna va tovarlarning jismoniy eskirishi va foydali xususiyatlarini yo'qotish bilan bog'liq sa'i harakatlarni cheklash.

Inson kapitali nazariyasi xavflarni kamayishi shular jumlasidandir. Tadqiqotchi G.Bekker individual va ijtimoiy tavsifga ega bo'lgan ichki qaytim normasi tushunchasini kiritdi. Birinchidan, G.Bekker insonni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarni aniq investorlar nuqtai nazaridan kiritishni tavsiflaydi, ikkinchidan butun jamiyat nuqtai nazaridan ularning samaradorligini baholaydi.

Shunday ekan, qaytim normasi, o'z navbatida, ta'limning har xil turlari va darajalari o'rtasida va butun iqtisodiyot hamda uning har xil sektorlaridagi ta'lim tizimi o'rtasidagi investitsiyalarni maqsadli va manzilli taqsimlash regulyatori sifatida namoyon bo'ladi. Ichki qaytim normasi esa ta'limdagi tafakkur qilish uslubi bo'lgan keys metodini qo'llash negizida samarali bo'ladi.

Inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar G.Bekkerning asarlarida ham T.Shulsning asarlaridagi singari jismoniy kapitalga quyilmalarga nisbatan sezilarli darajada oshishi ta'kidlangan. Amerikalik iqtisodchi L.Turov o'z tadqiqotlarida keys metodi inson kapitalini rivojlantirishdagi unumdorlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. U inson kapitalini odamlarning tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyati sifatida belgilaydi. Bu nafaqat shaxsga yo'naltirilgan alohida ishlab chiqarish sarmoyasi, balki boshqa sarmoyalarning samaradorligiga ham ta'sir qiladi. Shuningdek, P.Romer ham ushbu yondashuv tarafdori bo'lib, inson kapitalini iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy manbai sifatida talqin qiladi. U yangi bilimlarning manbai – aynan inson kapitali ekanligini ta'kidlagan bo'lsada keys negizidagi tafakkur qilish ko'nikmasi bilimlarni ekstropolyatsiya qilish vositasi ekanligini asoslaydi.

Aynan shu boisdan ham inson kapitalini rivojlantirishda deduktiv tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Undan umumiy tushunchadan juz'iy fikrga o'tishda, yoshlarda mustaqil, tanqidiy, tahliliy fikrlashni shakllantirishda, mantiqiy zaruriy xususiyatga ega bo'lishda, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar turli shakllarini namoyon qilishda foydalanish mumkin.

Keys usulida deduktiv tafakkurga ko'proq tayaniladi. Ma'lumki, aksiomalar isbotsiz, chin deb qabul qilinadigan nazariy va amaliy qoida mulohazalar bo'lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Deduktiv tafakkur sillogizm shaklida bo'ladi. Sillogizm aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi. Sillogizm aksiomasini terminlarning xajmiga yoki mazmuniga ko'ra, ya'ni atributiv ta'riflash mumkin.

Sillogizm aksiomasini quyidagicha ifodalash mumkin: agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bolsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumni ichida bolsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning ichida joylashgan bo'ladi» yoki «Bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bolsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashkarida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan bo'ladi. Bu koidani quyidagi shakllar yordamida yakkol ifodalash mumkin.

Keys metodi orqali fikrni asoslashda analogiya usuli ham muhim o'rin tutadi. Analogiya grekchada moslik, o'xshashlik ma'nosida qo'llanilib, bivosita xulosa chiqarishning bir turidir. Deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiylikdan juz'iylikka qarab, induksiyada juz'iylikdan umumiylikka qarab harakatlangan, analogiyada predmet va hodisalarning o'xshash belgilarga qarab xulosa chiqariladi.

Inson kapitalini rivojlantirishda analogiyada predmetlarning o'xshash xossalari asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda obyektiv turli-tumanlik bilan bir katorida, obyektiv o'xshashlik ham mavjuddir. Ular inson ongida o'z ifodasini topadi. Obyektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalar tuzilishi jihatdan o'xshash bo'lsa, ular aks etgiran voqelikdagi turli narsa va hodisalar ham ma'lum ma'noda o'xshash bo'ladi. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish obyektiv reallikning cheksiz ko'rinishlari hamda unda mavjud bo'lgan turli sistemalarning xossalari, munosabatlari, tarkiblaridagi o'xshashliklarga asoslanadi. Masalan, sayyoralar, davlatlar, ijtimoiy tuzumlar mohiyatida o'xshashlik bor. Bilishda muhim va nomuhim xossalari o'xshashligi asosida analogiya bo'yicha xulosa chiqariladi [10].

I.Kepler planetalar harakatining qonunini ochganda, samoviy jismlarning o'zaro tortishish kuchini insonlar o'rtasidagi muhabbatga taqqoslaydi, shu asosda astronomiyaga planetalararo o'zaro tortishish kuchi tushunchasini kiritadi. Munosabatlar analogiyasining formulasi esa «inson-inson», «inson-jamiyat», «inson-tabiat» munosabatlarini anglatadi.

Munosabatlar analogiyasida o'zaro bog'liqlik hodisasi ikki inson o'rtasidagi munosabat holati asosida boshqa ikki odam o'rtasidagi munosabat bilan qiyoslangan holda xulosa chiqariladi. Mazkur munosabatlarning global ko'rinishidagi manzarasi Buyuk Britaniya, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Rossiya va Turkiya kabi iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribalari orqali namoyon bo'lganligi ilmiy manbaalarda o'z aksini topgan.

Shuningdek, umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi, BMTning Yangi ming yillik taraqqiyot dasturi (UN New Millennium Goal), BMT Rivojlanish Dasturining «Barqaror rivojlanish maqsadi» (UNDP Sustainable Development Goal), Inson rivojlanish ko'rsatkichlari va indikatorlari (Human Development Indices and Indicators), XMT, Xalqaro mehnat konferensiyasi, BSST, Inson resurslari hisoboti (Human Resources Report), Inson taraqqiyoti indeksi (Human Development Index), Inklyuziv taraqqiyot indeksi (The Inclusive Development Index) kabi bir qator global indekslar tadqiq etilgan.

Hamyurtimiz, qomusiy olim Abu Rayxon Beruniyning fikriga ko'ra «Eng muhim g'oya shuki, barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmatini uning avlod-ajdodlarining kim bo'lganligi bilan emas, balki uning mehnati, aqliy va jismoniy mahorati bilan belgilanadi» [3], degan fikrni ilgari suradi. Inson kapitalini rivojlantirishda katta hissa qo'shgan bir qator g'arb olimlarining fikr va qarashlariga e'tibor qaratamiz.

Keys metodi negizida inson kapitalini muntazam ravishda rivojlantirib borish bilan sotsiolog, psixolog va iqtisodchi olimlar shug'ullanishini hisobga oladigan bo'lsak, ular asosan mikro darajada - shaxsning rivojlanishi, mezo-darajada korxonalar hamda tashkilotlarni rivojlantirish va makro darajada - umuman davlatni rivojlantirish munosabatlarini to'liq qamrab olishi kerak degan fikr ilgari suriladi [9].

Keysni yechishda muammoli vaziyat bu, bilish predmeti, obyekt bilan ilmiy izlanish, ixtirolar yaratish va yangi bilimlarni olishga yo'naltirilgan fikran o'zaro ta'siridir. Muammoli vaziyatning oddiy belgilari mavjud bo'lib, ular noaniq muammolar to'g'risida o'z-o'ziga savol berish, uni hal etish usullari va yo'llarini izlab topishdan iboratdir.

Amerikalik tadqiqotchi M.Porter «Har qanday davlatning iqtisodiy raqobatbardoshligi va mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy muhit barqarorligining sifati jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar vakillarining intellektual taraqqiyot darajasi, kasbiy faollik hamda eng muhimi ijtimoiy ahillik, hamjihatlik, o'zaro hamkorlikdagi faoliyatda adolatlilik va odamlarning bir-biriga nechog'li ma'naviy bog'langanlik holatiga bevosita bog'liqdir» [4], deydi.

Ma'lumki, dunyoda insonni kompleks rivojlantirish eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Shu boisdan ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Maslisga qilgan Murojaatnomasida quyidagi fikrlarni ilgari surdi: «Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda yesa bu ko'rsatkich atig 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart» [2].

Amerikalik professor Rene Foks [5] fikriga ko'ra, odamlarning integrativ xususiyati susayishi, uyushmaganlik fenomeni asosan jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli shakllanib, o'ziga xos «affekt» holati yuzaga keladi. Jamiyatda bir ijtimoiy qatlamga g'amxo'rlik qilinib, ya'ni pozitiv yuksalayotgan xodisalarga ko'proq e'tibor berilib, negativ holatlarni ko'rmaslikka intilish, e'tiborsiz qolgan toifa a'zolarida «affekt neytrallikka affekt munosabat», yondashuvini tarkib toptiradi, deydi sotsiolog olim M.Bekmurodov [6]. Affekt munosabat esa jamiyat tinchligi, xavfsizligi va taraqqiyotga zid bo'lgan turli ekstremistik oqimlarga berilish, radikalizm, aqidaparastlik, behayollik, befarqlik illatlariga yo'l ochadi.

Ayni paytda mashhur amerikalik sotsiolog Talkott Parsons «Odamlarning o'zaro yaqinligiga halal beruvchi omillarni o'rganib umumiy maqsadlar, yalpi ijtimoiy harakatlardan chetda qoluvchilar jamiyat tarkibida uzluksiz ortib borayotgani va bu holat o'ziga xos tendensiyaga aylanayotganini qayd etadi» [7].

Keys metodi negizida inson kapitalining rivojlantirish shaxsning ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, talab-ehtiyojlarining qondirilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga ham bevosita bog'liqdir. «Jamiyat qanday bo'lsa, undagi ijtimoiy munosabatlar majmuini singdirgan inson kapitali ham unga mos bo'ladi. Inson aql-idrok sohibi bo'lganligi uchun real dunyodagi voqealarni biladi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi» [8].

Keys usuli negizida muammoli vaziyat mohiyati qarama-qarshiliklar aniqlangach

oydinlashadi. Bunda ushbu qarama-qarshilikni hal qiluvchi savolga javob noma'lum bo'ladi. Muammoli vaziyat komponentlari quyidagilar:

- bilish predmeti;
- o'qitish subyekti;
- bilish subyekti;
- muammoni qo'yuvchi va tinglovchilar dialogi;
- tinglovchining bilishga ehtiyoji;
- tinglovchining muammoni bilish maqsadi bilan u to'g'risida ilgari va ayni vaqtdagi fikrining o'zgaruvchanligini qiyoslash.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan asoslab berilgan faol va mas'uliyatli shaxs konsepsiyasi quyidagi ijtimoiy xususiyatlarni namoyon yetadi:

- inson kapitali zamonaviy ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi;

- inson kapitalini rivojlantirish davlat jamiyat va shaxsning o'zidan jiddiy sa'y – harakat va xarajatlar talab yetadi;

- inson kapitali bilim, tajribalar, strategik rejalar, odamlarning intellektual-ma'naviy darajasi, shuningdek, muayyan maqsadlari, qiziqish va layoqatlari sifatida ham milliy zahira hisoblanadi;

- inson kapitalini rivojlantirish maqsadida qilinuvchi xarajatlar faqat yaqin vaqt mobaynida emas, balki uzoq istiqbolda ko'proq naf keltiradi;

- inson salohiyati uning egasiga ko'rsatiladigan e'tibor va g'amxo'rlik natijasida inson kapitaliga transformatsiya bo'ladi.

Ta'lim, ma'rifat omili bag'rikeng xalqimiz milliy strategiyasining bosh harakatlantiruvchi kuchi hamda o'ziga xos lokomotivi vazifasini bajarsa, uning ikkinchi muhim jihatini ya'ni, ta'limni bunyodkor kuchga aylantiradigan imkoniyatni – inson kapitali, barkamol shaxs omili tashkil etadi [1].

Zero, ta'lim negizida joriy etiladigan keys usuli o'zining bunyodkorlik mohiyatini quyidagilar orqali yorqin namoyon etmoqda:

- ta'lim va tarbiyaning yuksak insonparvarlik, demokratik, sog'lom raqobat hamda o'zaro yordam muhitida amalga oshirilishi;

- ta'limning shaxs salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi uzluksizligi va izchilligi;

- ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liqligi;

- o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'limning inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilganligi;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining zamonaviy kompyuter texnologiyalarini puxta o'zlashtirib, kamida ikkita xorijiy tilni egallayotgani hamda 2-3 ta kasb-hunar sohibi bo'lib hayotga, bunyodkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga tayyor holda kirib borishlari ta'minlanganligi;

- ta'lim va tarbiyaning insonni kasbiy rivojlantirish jarayonlari bilan uyg'unligi;

- yuksak malakali mutaxassis bo'lishda ilg'or xorijiy tajribalarga tayanish va ularni maqsadli o'zlashtirib borishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;

- ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuvning mavjudligi;

- keng dunyoqarashga egalik, har tomonlama bilimli bo'lishning hamda yoshlar iste'dodini

ro'yobga chiqarish jarayonlarining davlat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va muntazam rag'batlantirilishidir.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, inson kapitalini takomillashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan ijtimoiy transformatsiyalashuv tendensiyalari kompleks va ko'pqirrali tabiatiga ega. Keys-stadi usuli orqali amalga oshirilgan tahlil aholining intellektual salohiyati, kadrlar potentsiali va innovatsion jarayonlardagi ishtirok darajasini aniqlash hamda samarali rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Jahon va mahalliy tajribalarni solishtirish natijalari ta'lim tizimi, mehnat bozori, raqamlashtirish jarayonlari va ijtimoiy institutlar inson kapitalini shakllantirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, institutsional islohotlar va kompleks yondashuvlarni qo'llash inson kapitalining rivojlanishini optimallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan ham inson kapitalini rivojlantirishda keys metodi imkoniyatlarini samarali tadbiiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Inson taraqqiyotiga sarmoya kiritib, jamiyat nafaqat mehnat unumdorligini oshirishga, balki tovarlar, ijtimoiy mahsulotlar va xizmatlarni yanada adolatli taqsimlashga ham erisha oladi. Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish maqsadlariga erishish uchun inson kapitalini rivojlantirish vazifasi davlatning ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ushbu maqsad-muddaolarga hamohangligi bilan ham ahamiyatlidir.

#### Адабиётлар/Литература/ References:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2016. – Б.14.
2. О'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2018.
3. Rasulova F., Do'stjonov T., Hasanov S. Xorazm Ma'mun akademiyasining olis-yaqin yulduzlari. – Toshkent: «IQTISODMOLIYA» 2005. – B.31-44.
4. Портер М. Конкуренция. – М., «Вильямс». 2006. – С.608.
5. Фокс Renée С. (1989). Социология медицины. Пирсон. ISBN 0138205078.
6. Бекмуродов М. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – 436 б.
7. Фокс Renée С. (1989). Социология медицины. Пирсон. ISBN 0138205078.
8. Беленкова О.А. Роль антропологического фактора управления в формировании человеческого капитала общественного производства // Вестник Башкирского университета, 2014. – №4. – С. 197.
9. Ташмухамедова Д., Каримова Д., Закиров Д. Худудларни комплекс баҳолашнинг ижтимоий-демографик жихатлари. Илмий-услубий қўлланма. – Тошкент: Yurist-media Markazi, 2020.
10. Усмонов Б.Ш., ва бошқ. Инсон капиталининг шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли (илмий-оммабоп рисола). – Самарқанд: СамДУ, 2015. – 83 б.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000